Korxonalarda pul mablag'lari auditini takomillashtirish yo'llari.....	1005
Karamatova Noiba Xusniddinovna	
Hududlarda inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	1010
Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li, Ibragimov Behruz Ravshan o'g'li	
Yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikning muhim omilidir	1014
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
Pardayeva Shahnoza Abidinabiyevna	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1022
Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



QURILISH TASHKILOTLARIDA XODIMLAR INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI



Usmanov Lixom Achilovich

T. f.n., Mirzo Ulug‘bek nomidagi

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxona innovatsion faoliyatining muhim qismi bo‘lmish xodimlarning innovatsion faolligini oshirish muammosi o‘rganilgan. Muallif tomonidan qurilish tashkilotlarida innovatsion faollik yo‘nalishlari va shakllari tadqiq qilingan va yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, xodimlar innovatsion faolligi, innovatsiyalarga moyillik, innovatsion muhit.

Abstract: This article studies the problem of innovative activity of employees as an important part of the innovative activity of an enterprise. The author has studied the directions and forms of innovative activity of employees in construction organizations and developed proposals for their further improvement.

Key words: innovation activity, innovative activity of employees, propensity to innovate, innovative environment.

Аннотация: В данной статье изучена проблема инновационной активности работников, как важной части инновационной деятельности предприятия. Автором исследованы направления и формы инновационной активности сотрудников в строительных организациях и разработаны предложения по дальнейшему их совершенствованию.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационная активность работников, склонность к инновациям, инновационная среда.

KIRISH

Bizning fikrimizcha, zamonaviy samarali iqtisodiyotning asosiy belgisi – bu uning innovatsiyalarga moyilligidir. Innovatsion moyillik deganda iqtisodiyotdagi barcha subyektlar va sohalarda yangiliklarni o‘ziga singdirish qobiliyatini tushunamiz. Haqiqatdan ham, an’anaviy innovatsion faoliyat emas, balki aynan innovatsiyalarga moyillik kompaniyalarda mehnat jamoasining o‘zgarishlarni amalga oshirishga, xorijiy tajribani tezkorlik bilan o‘zlashtirishga, yangi g‘oya va yechimlarni ishlab chiqarishga joriy qilishga undaydi. Yaponiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi innovatsion siyosati, bugungi kunda esa Xitoyning tajribasi innovatsiyalarga moyillik qanchalik kuchli qurolligini ko‘rsatmoqda. Xalq orasida keng tarqalgan “Dunyoda qanday yangilik paydo bo‘lmasin, ertasi kuni Xitoyda uning nusxasi yaratiladi” iborasi bu mamlakat tadbirkorlarida innovatsiyalarga moyillik mavjudligini, yangilik yaratish va joriy qilishda hech qanday to‘siqlar xalaqit bera olmasligini qo‘rsatadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda olib borilayotgan islohotlar innovatsion rivojlanishga ustuvor vazifa sifatida qarashni taqozo qilmoqda. Buning isboti sifatida 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasiga e’tiborni qaratamiz ^[1]. Strategiyaning “...asosiy maqsadi – mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o‘rni yaratishdan boshlab iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo‘lgan “tarmoq-hudud-ilmiy-oliy ta’lim tashkilot” uzluksiz ekotizimni rivojlantirish” qilib belgilangan. Shu bilan birga, strategiyada “...innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish”, “... xodimlarni baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish” vazifalari esa aynan innovatsiyalarga moyillik muhitini yaratishga qaratilgan.

Korxona va tashkilotlarning innovatsiyalarga moyilligi xodimlarning innovatsion faol xulqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Innovatsion faollik zamonaviy kreativ xodimning asosiy belgilaridan hisoblanib innovatsiyalarni izlash, topish, o‘zlashtirish va ommalashtirishda tashaabbus ko‘rsatishni ifodalaydi. Boshqa adabiyotlarda innovatsiyalarga moyillik xodimlarning ijodiy va innovatsion qobiliyatlari bo‘lib, korxonada innovatsiyalarni joriy qilish zaruratini anglash deb ta’rif beriladi.



Innovatsion faollik tashkilotlarning innovatsion faoliyatini baholashning asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ushbu atamaning ahamiyatli tomoni shundaki, unda innovatsion salohiyatdan foydalanish bilan birga jamoada innovatsion iqlimning shakllanganligi ham o'z aksini topadi. SHu bilan birga, innovatsion salohiyatning amaliyotda aks ettirilishi tashkilot xodimlarining innovatsion faolligi bilan ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalarning innovatsion faoliyatining nazariy asoslari M. Porter, Y. Shumpeter, N. Kondratev, P. Drukker, D. Bell kabi olimlarning izlanishlarila o'z aksini topgan. Mamlakatimiz olimlaridan M. Ikramov, Sh. Musaeva [2], N. Raxmatov, A. Mirzayevlar O'zbekistonda iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish vazifalari o'rganilgan. Xodimlarning innovatsion faoliyatiga Z. Teshaboyevaning izlanishlari bag'ishlangan [3].

Adabiyotlarda xodimlarning innovatsion faolligi atamasi keng muhokama qilingan bo'lib olimlarning ushbu masalaga turli qarashlari mavjud. Olimlarning bir qismi xodimlarning innovatsion faolligini ularning ijodiy qobiliyatlarini korxonaning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ro'yobga chiqarilishini tushunsalar [4], boshqalar xodimlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va foydalanish sohasidagi munosabatlar deb ta'rif beradilar [5]. Ayrim olimlar xodimlarning innovatsion mehnat xulqi (innovative work behavior) atamalarini ham qo'llaydilar, ya'ni yangi g'oyalarni yaratish, taklif qilish va rivojlantirish bilan bog'liq doimiy harakatlar haqida so'z yuritadilar [6]. O'zbekiston korxonalari va tashkilotlarida xodimlarning innovatsion faolligini oshirish uchun tegishli ilmiy uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqilishi dolzarb masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmonida o'z aksini topgan [7].


Tadqiqotni amalga oshirishdagi ilmiy taxmin shundan iboratki, qurilishdagi innovatsion faoliyatning samaradorligi birinchi o'rinda xodimlarning faolligi, ya'ni innovatsion xulqiga bog'liqdir. Shuning asosida tadqiqotda qurilishdagi innovatsion faoliyat yo'nalishlari, ularning natijalari va xodimlarning tutgan o'rnini o'rganish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar, nazariy, mantiqiy va amaliy usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasiga Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida alohida o'rin ajratilgan. Oxirgi besh yilda investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmining karrali oshib borishi qurilish sohasida boshqaruvida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni qurilishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash hamda xorijiy tajribani olib kirish kabi choralarni amalga oshirishga sabab bo'ldi. 2022-yilda jami 130,8 trln.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, bu 2018-yilga insbatan 2,6 barobar ko'pdir (51,1 trln.so'm). 2022-yil yakuni bo'yicha mamlakatimizning qurilish sohasida jami 46971ta korxona va tashkilot faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 1314,6 mln.kishi band bo'lgan [8].

Olib borilgan harakatlar natijasida qurilishda innovatsion faoliyatning jadallashishini ko'rish mumkin. Ayniqsa, "SHaffof qurilish" elektron platformaning ishga tushirilishi, tender mexanizmlarining raqamlanishi, yangi material va ilg'or texnikalarning loyiha-qurilish jarayonlariga kirib kelishi bugungi kunda katta samara bermoqda. SHu bilan birga e'tirof etish joizki, qurilish tashkilot va korxonalarida xodimlarning innovatsion faolligi zamon talablariga javob bermaydi.

Tashkilot xodimlarining innovatsion faoliyatda ishtirok etishi ikkita asosiy yo'nalishdan iborat bo'ladi: yuqoridan (tashkilot rahbariyati va tashqi steyxolderlar) kirib kelayotgan innovatsiyalarni joriy qilishni qo'llash va ishtirok etish hamda pastdan, ya'ni tashabbus ko'rsatuvchi sifatida innovatsion g'oyalarni tashkilotda targ'ib qilishi va qo'llash. Ikki yo'nalishda ham xodimlarning innovatsion faolligining zarur shart-sharoitlari yaratilishi lozim bo'ladi (1-rasm).



1-rasm: Qurilish korxonasida innovatsion faollikning shart-sharoitlari.



Rasmdan xulosa qilish mumkinki, xodimlarning innovatsion faolligini to'rtta asosiy omil belgilab beradi. Xodimlarning innovatsion salohiyati ularning bilim, ko'nikma va tajribalarining hosilasi bo'lib, mustaqil ravishda yangilikni yaratish qobiliyatini aks ettiradi. Qurilish sohasida yuqori malakali mutaxassislarning tajriba oshirib borish, zamonaviy bilimlarni egallashi ularda kreativ fikrlashga asosni shakllantiradi.


Innovatsion axborot oqimlari, ya'ni tashkilotda sohadagi yangiliklar to'g'risida axborot tarqatish tizimining mavjudligi xodimlarda o'ziga ishonchni o'yg'otadi, ya'ni innovatsiyalarni yaratishga ishtiyoqni o'yg'otadi.

Innovatsion xulq motivatsiyasi deganda izlanish, tanqidiy va kreativ fikrlash hamda ishga ijodiy yondashishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yoki mukammalroq bo'lsa, barcha rag'batlantirish mexanizmlarini innovatsion faollikka bog'lash tushuniladi.

Innovatsion muhit keng va murakkab atama bo'lib yuqoridagi omillarning ta'siri ostida mehnat jamoasida innovatsiyalarga ijobiy qarash, ularni ishlab chiqarish faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni o'zida mujassamlashtiradi. Innovatsion muhitning asosiy belgisi mehnat jamoasining barcha a'zolarini yangiliklarni joriy qilishdagi faolligidir, ya'ni doimiy ravishda sog'lom raqobat sharoitida innovatsiyalarga qiziqishning mavjudligidir.

Innovatsion faollikning shart-sharoitlarini yaratish tashkilot rahbariyatining muhim vazifasi hisoblanadi. Buning uchun xodimlarning kasbiy faoliyati, lavozimi, mehnat sharoitlari va salohiyatiga mos bo'lgan innovatsiyalar yo'nalishlarini tavsiya qilish choralari ko'rish lozim bo'ladi. Aksariyat qurilish tashkilotlarining innovatsion faoliyati ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan kichik o'zgarishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Aynan qurilish ishlarini bajarishga ixtisoslashgan tashkilotlarni misol sifatida oladigan bo'lsak, xodimlar (ishchi va xizmatchilar) tashabbusi bilan olib boriladigan innovatsiyalarning quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirishni taklif qilamiz (2-rasm).



2-rasm: Qurilishda xodimlarning innovatsion faollik yo'nalishlari

Qurilish materiallarini tejash. Qurilish mahsuloti tannarxining karyib 60%ni qurilish materiallar va konstruksiyalar tashkil qiladi. Sohaning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida qurilish materiallarini tejash yo'llarini izlash qurilish tashkilotlarning dolzarb muammosi hisoblanadi. Muhimi, materiallarni tejashda uni bevosita ishlatayotgan ishchining fikri juda muhim, chunki material hajmi va sifatining oxirgi bahosini ishchilar beradilar;

Ish joyi va operatsiyalarni takomillashtirish. XX-asrning boshida F. Teylor o'z izlanishlarini xodimlarning ish jarayonini o'rganishdan boshlagan. Bugun ham ushbu masala o'z dolzarbligini yo'qotmagan, ya'ni mehnatni ilmiy tashkil qilish samardorlikning bosh mezonini hisoblanadi. Shuning uchun ishchilar va past bo'g'in rahbarlarning innovatsion takliflarida ish joyi, asbob-uskunalar, mehnatning kichik operatsiyalari va mehnat harakatlarini takomillashtirish g'oyalariga yo'l berish lozim;

Materiallarni qayta ishlatish. Qurilish ishlab chiqarishining xususiyatlaridan biri qurilish materialining o'lchamlari loyihada ko'rsatilgan o'lchamlarga mos kelmasligidir, ya'ni uni kesish yoki moslashtirish zarur, bunday holatda materialning qoldiqlari qurilish chiqindilariga aylanadi. Demak, tajamkorlik va atrof-muhitni himoyalash nuqtayi nazaridan ushbu qoldiqlarni boshqa ishlarga sarflash yoki boshqa maqsadlarda foydalanish g'oyalarini qo'llab-quvvatlash lozim;

Texnologiyani takomillashtirish. Qurilish ishlab chiqarishi tashqi omillarga ta'sirchanligini hisobga olsak, texnologiyani o'z vaqtida o'zgartirish va sharoitga moslash xarajatlarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. SHu munosabat bilan xodimlarning texnologik innovatsiyalarni ommalashtirish ijodkorligini rivojlantirish tizimini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim;



Atrof-muhitni himoya qilish. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining qurilish sohasidagi eng muhim vazifasi – bu qattiq qurilish chiqindilarini kamaytirishdir. Xodimlarning innovatsion faolligi chiqindilarni keltirib chiqarish omillarini aniqlash va ularni boshqarishga yoʻnaltirilishi zarur;

Qurilish ishlariga oid ichki meʼyorlarni takomillashtirish. Qurilish sohasida boshqaruvning liberallasuvi tashkilotdagi ichki meʼyorlarning ahamiyatini oshirishga olib kelmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirish maqsadi tashkilot xodimlari oldiga material sarfi, mehnat sarfi, shartnoma intizomi va boshqa meʼyorlarni rivojlantirish vazifasini qoʻyadi.

XULOSA

Izlanishlar shuni koʻrsatdiki, har bir yoʻnalish oʻziga xos tashkiliy-iqtisodiy yondashuv va dasturlarni talab qiladi. Shu bilan birga korxonaning mavqeyi va bozordagi raqobat kuchiga mos ravishda boshqa yoʻnalishlarni ham ustuvor qilib tanlash mumkin. Eng muhimi, dasturlarning amalga oshirilishi xodimlarning innovatsion motivatsiyasini oshirishga va korxonada inovatsion muhit yaratilishiga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-165-son Farmoni. <http://lex.uz>
2. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021-yil uchun oʻquv qoʻllanma.
3. Teshaboyeva, Z. (2023). Xodimlarning innovatsion faoliyatini motivatsiyalash mexanizmini shakllantirish masalalari. Iqtisodiyot Va taʼlim, 24(1), 281–285. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a43.
4. Belkin V. N. Innovatsionnaya aktivnost menedjerov predpriyatiy kak uslovie razvitiya trudovogo potentsiala regiona. [Tekst] / V. N. Belkin, N. A. Belkina, O. A. Antonova // Ekonomika regiona. – 2018. – T. 14, вып. 4. – S. 1327-1340.
5. Balakina D. V. Innovatsionnaya aktivnost personala rossiyskix predpriyatiy [Tekst] / D. V. Balakina // CHelyabinskiy gumanitarniy. – 2011. – № 1(14). – S. 32-35.
6. Hanan S. Alessa & Christopher M. Durugbo. Systematic review of innovative work behavior concepts and contributions. <https://link.springer.com/article/>
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2020-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasi qurilish tarmogʻini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-6119-son Farmoni. <http://lex.uz>
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi. <http://stat.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.